



## I. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiyligi hajmi 29352,8 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 102,2 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 11117,7 mlrd. so'mni (99,3 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 17224,9 mlrd. so'mni (102,8 foiz), qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 516,9 mlrd. so'mni (121,6 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 100,7 mlrd. so'mni (123,1 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,4 mlrd. so'mni (101,6 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 392,2 mlrd. so'mni (101,3 foiz) tashkil qildi.

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)  
hajmining taqsimlanishi, foizda**




**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari**



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (103,9 foiz), Kitob tumani va Shahrisabz shahar mos ravishda (103,6 foiz), G'uzor (103,2 foiz), Muborak (102,8 foiz), Dehqonobod (102,7 foiz), Koson (102,5 foiz), Qarshi shahar (102,4 foiz), Yakkabog' (102,2 foiz), Qamashi (102,1 foiz), Qarshi (101,9 foiz), Nishon (101,3 foiz), Kasbi va Koson tumanlarida (105,7 foiz), Muborak (105,5 foiz), Mirishkor (103,9 foiz), Kasbi va Chiroqchi tumanlarida (101,1 foiz) o'sish kuzatildi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiyligi hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 12,0 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Koson tumani 9,4 foiz, Qamashi tumani 9,2 foiz, Kasbi tumani 8,9 foiz, Kitob tumani 8,4 foiz, Qarshi tumani 8,3 foiz, Yakkabog' tumanlari 7,2 foiz, Nishon tumani 6,6 foiz, Mirishkor va Shahrisabz tumanlari 6,5 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi, eng kam ulush Qarshi (0,7 foiz) va Shahrisabz (0,8 foiz) shaharlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**

	<i>mldr. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>29352,8</b>	<b>102,2</b>
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	217,5	102,4
Shahrisabz	242,0	103,6
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1822,2	103,2
Dehqonobod	1312,1	102,7
Qamashi	2699,5	102,1
Qarshi	2431,3	101,9
Koson	2766,3	102,5
Kitob	2474,0	103,6
Mirishkor	1912,7	103,9
Muborak	1410,8	102,8
Nishon	1923,0	101,3
Kasbi	2598,3	101,1
Chiroqchi	3532,1	101,1
Shahrisabz	1912,6	101,7
Yakkabog'	2098,4	102,2

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi  
mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**  
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*



- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

### **DEHQONCHILIK**



2021- yilning yanvar-dekabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 11117,7 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,3 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 39,2 foizni tashkil qildi.


**Hosil yig‘imi.** 2021- yil yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 504988 tonna sabzavot (102,4 foiz), 181776 tonna kartoshka (102,8 foiz), 177112 tonna oziqbop poliz (108,5 foiz), 172334 tonna meva va rezavorlar (105,6 foiz), 100579 tonna uzum (110,2 foiz) yig‘ib olindi. Bundan tashqari 801865 tonnadan ortiq don ekinlari (90,9 foiz) ishlab chiqarildi.

**2021- yilning yanvar-dekabr oylarida xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdag'i  
dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


	<i>Fermer xo‘jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari</i>		<i>Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o‘sish sur’ati, foizda</i>
Don	683827	90,4	92592	98,3	25446	80,0
Kartoshka	35121	111,9	146138	101,0	517	77,6
Sabzavotlar	127246	107,3	372303	102,1	5439	54,9
Poliz	84281	119,2	91319	101,0	1512	68,9
Mevalar va rezavorlar	94107	108,5	74761	102,4	3466	101,9
Uzum	42306	119,2	56317	103,7	1956	135,6

**2021- yilning yanvar-dekabrida hududlar kesimida asosiy turdag'i dehqonchilik  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**Sabzavotlar (tonna)**



**Mevalar va rezavorlar (tonna)**





## CHORVACHILIK

Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o‘sishiga, ichki iste’mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to‘yinishiga imkon yaratdi.

2021- yilning yanvar-dekabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 17224,9 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 103,6 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,8 foizni tashkil etdi.

2022- yilning 1- yanvar holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 103,3 foiz (jami 1674,4 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 103,2 foiz (551,5 ming bosh), qo‘y va echkilar 103,5 foiz (4893,3 ming bosh), otlar 103,2 foiz (34,3 ming bosh), parrandalar 100,3 foizni (6174,8 ming boshni) tashkil etdi.

### 2022- yil 1- yanvar holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	<i>ming bosh</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Yirik shoxli qoramol</b>	<b>1674,4</b>	<b>103,3</b>

*shu jumladan:*


Fermer xo‘jaliklari	100,5	121,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	1548,9	102,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25,0	101,4
<b>ulardan sigirlar</b>	<b>551,5</b>	<b>103,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	42,4	117,6

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	500,5	101,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,6	124,3
<b>Qo'y va echkilar</b>	<b>4893,3</b>	<b>103,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	401,9	111,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4142,5	101,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	348,9	118,1
<b>Otlar</b>	<b>34,3</b>	<b>103,2</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	4,9	112,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	27,9	101,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	100,2
<b>Parrandalar</b>	<b>6174,8</b>	<b>100,3</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	439,5	111,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4475,1	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1260,2	91,6


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 92,5 foizni, fermer xo'jaliklarida 6,0 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 90,8 va 7,7 foizni, qo'ylar va echkilar 84,7 va 8,2 foizni, parrandalar 72,5 va 7,1 foizni tashkil qildi.

**2022- yil 1- yanvar holatiga hududlar kesimida  
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**




*shu jumladan: sigirlar (ming bosh)*



**Qo'yilar va echkilar (ming bosh)**



**Parrandalar (ming bosh)**



2021- yilning yanvar-dekabrida barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 310,8 ming tonna go‘sht (2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 102,9 foiz), 1248,4 ming tonna sut (105,8 foiz), 519,3 ming dona tuxum (95,1 foiz) ishlab chiqarildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 97,9 foiz, sut ishlab chiqarishda 99,3 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 74,7 foizni tashkil etdi.



#### **2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o‘sish sur’ati, %</i>
--	----------------	--------------------------

<b>Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.</b>	<b>310,8</b>	<b>102,9</b>
--	--------------	--------------

*shu jumladan:*

Fermer xo‘jaliklari	9,2	147,5
---------------------	-----	-------

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	295,1	101,2
---	-------	-------

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,5	156,8
--	-----	-------

<b>Sut, ming tn.</b>	<b>1248,4</b>	<b>105,8</b>
----------------------	---------------	--------------

*shu jumladan:*

Fermer xo‘jaliklari	42,6	125,9
---------------------	------	-------

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
--	----------------	------------------------------

Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1197,4	105,2
--	--------	-------

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,4	108,0
---	-----	-------

<b>Tuxum, mln. dona</b>	<b>519,3</b>	<b>95,1</b>
-------------------------	--------------	-------------


*shu jumladan:*

Fermer xo'jaliklari	23,3	127,4
---------------------	------	-------


Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	364,6	101,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	131,3	77,5

### **2021- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**


**Go'sht (ming tonna)**



**Sut (ming tonna)**



**Tuxum (mln. dona)**




**Fermer xo‘jaliklari.** 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 7430,1 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 101,9 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiylajmi fermer xo‘jaliklarining ulushi 26,2 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6844,2 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur’ati 99,6 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 585,9 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 135,5 foizni tashkil qildi.

**Hosil yig‘imi.** 2021- yil yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklar tomonidan 683827 tonna don ekinlari(o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (90,4 foiz), 127246 tonna sabzavot (o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati (107,3 foiz), 35121 tonna kartoshka (111,9 foiz), 84821 tonna oziqbop poliz (119,2 foiz), 94107 tonna meva va rezavorlar (108,5 foiz), 42306 tonna uzum (119,2 foiz) yetishtirildi.

**2021- yil yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i qishloq xo‘jalik mahsulotlari**

	2020- yil yanvar-dekabr		2021- yil yanvar-dekabr		2020- yil yanvar-dekabriga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Kartoshka	31376	17,8	35121	19,3	111,9
Sabzavot	118621	24,1	127246	25,2	107,3
Poliz	70700	43,3	84281	47,6	119,2
Meva	86745	53,2	94107	54,6	108,5
Uzum	35498	38,9	42306	42,1	119,2

**Yanvar-dekabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari**



**Chorvachilik.** 2021- yilning yanvar-dekabrida fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 9239 tonna go‘sht (2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 147,5 foiz), 42557 tonna sut (125,9 foiz), 23303 ming dona tuxum (127,4 foiz) ishlab chiqarildi.

**Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

	2020- yil yanvar-dekabr		2021- yil yanvar-dekabr		2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiyligi hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sht	6263	2,1	9239	3,0	147,5
Sut	33811	2,9	42557	3,4	125,9
Tuxum, ming dona	18292	3,4	23303	4,5	127,4

2022- yilning 1- yanvar holatiga fermer xo‘jaliklarida 76,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 27,3 ming bosh sigir, 291,8 ming bosh qo‘y va echkilar, 3,8 ming bosh ot, 329,7 ming bosh parrandalar mavjud.

**Yanvar-dekabr holatiga fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlari**

